

XIV ASRNING 2-YARMIGA OID TURKIY YOZMA MANBALARDAGI NOM BILDIRUVCHI FRAZEMALAR

O‘razova Iqbol Abdikarimovna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
E-pochta: orazovaiqbola@gmail.com
Toshkent, O‘zbekiston

ANNOTATSIYA

Mumtoz adabiyotimizga mansub bo‘lgan asarlar tilini o‘rganish, ayniqsa, frazeologik fondini yig‘ish, lug‘at shaklida shakllantirish, ularni diaxron asosda tadqiq qilish, frazemalarni struktur-semantik jihatdan tahlil qilish, bunday izlanishlarda bugungi tilshunoslikning yangi yutuqlarini tatbiq qilish tilshunoslik oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Diaxron frazeologiya kam o‘rganilgan yo‘nalishlardan biridir. Mumtoz manbalarda qo‘llanuvchi frazemalar semantik jihatdan turli ma‘nolarni ifodalashi bilan xarakterli bo‘lib, ayni shu belgisi ularni semantik jihatdan tasniflashda turli murakkablikni keltirib chiqaradi. XIV asrning ikkinchi yarmiga oid turkiy yozma manbalarga Sayfi Saroyining “Gulistoni bit-turkiy” erkin tarjimasini, “Suhayl va Guldursun” dostoni, Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asari mansub bo‘lib, ushbu asarlarda 390ta frazema qo‘llangani aniqlandi. Mavjud frazemalar ma‘nosiga ko‘ra nom bildiruvchi, harakat bildiruvchi, holat bildiruvchi, belgi-xususiyat bildiruvchi, shaxsning xulq-atvorini bildiruvchi frazemalar kabi frazeosemantik guruhga ajratildi. Ushbu maqolada nom bildiruvchi frazemalar semantik jihatdan tahlil qilindi. Ularni tahlil qilishda maydon nazariyasiga asoslandi. Frazeologik birliklar “Qutadg‘u bilik” asaridagi birliklar bilan qiyoslangan holda leksik tarkibi va semantikasidagi taraqqiyot ochib berildi. Fikrlar misollar bilan asoslanib, xulosalar bayon qilindi.

Kalit so‘zlari: frazema, ot frazema, sema, semema, semantik tayanch komponent, sheva.

NAMING PHRASEMAS IN TURKISH WRITTEN SOURCES OF THE 2ND HALF OF THE XIV CENTURY

ABSTRACT

The study of the language of works belonging to our classical literature, in particular, the collection of phraseological fund, the formation of a dictionary, their study on a diachronic basis, structural-semantic analysis of phrases, the application

of new achievements of modern linguistics in such research is one of the most important tasks facing linguistics. Diachronic phraseology is one of the least studied areas. Phrases used in classical sources are characterized by the fact that they have different semantic meanings, which is the same feature that makes them difficult to classify semantically. Turkish written sources of the second half of the 14th century included a free translation of Sayfi Sarayi's Gulistoni bit-turkiy, the epic Suhayl and Guldursun, and Khorezmi's Mukhabbatnoma, in which 390 phrases were used. The existing phrases are divided into phrase-semantic groups, such as characterizing, naming, featuring, personality nouns In this paper, the noun phrases are semantically analyzed. Their analysis was based on field theory. Phraseological units were developed in comparison with the units in Kutadgu Bilik, the development of lexical structure and semantics. The opinions were based on examples and conclusions were stated.

Keywords: phrase, noun phrase, sema, semema, semantic base component, dialect.

KIRISH

Frazemalar til egasi ongida yillar davomida shakllanib boruvchi semantik hodisa bo'lib, uning boshqa til hodisalaridan farqini shu tomoni belgilaydi. "Shu ma'noda frazeologizmlarning semantik tarkibini, ularning shakllanish xususiyatlarini tadqiq etish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Frazelogik ma'no masalalari ko'pdan tilshunoslar e'tiborini tortib keladi"¹ va bu til birliklarining semantik tasnifi ham turlichaligi bilan munozaralidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

O'zbek tilshunosligi dastlab V.Vinogradov g'oyasi asosida frazeologizmlar semantik jihatdan frazeologik chatishma, frazeologik birlashma va frazeologik qo'shilmaga bo'lib o'rganilgan². E.Umarov "Xazoyin ul-maoniy"da uchraydigan fraeologizmlarni ham yuqoridagi tasnif asosida tadqiq qiladi. Shuningdek, olim "Xazoyinul-maoniy"da qo'llangan frazeologizmlarni umumturkiy va o'zlashma iboralarga ajratgan. A.Navoiy arab va fors tilidagi frazemalarni tilga olib kirishga

¹ Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари. Филол. фан. док...дисс. – Тошкент, 1999. –Б. 115.

² Раҳматуллаев Ш. Фразеологик бирликларнинг асосий маъно турлари. –Тошкент: 1955; Пинхасов Я. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўқитувчи, 1969. –Б. 48; Умаров Э.А. Фразеологический словарь "Хазойин-ул-маоний" Алишера Навои. – Тошкент: Фан, 1971. –С.9-12; Мирзаев М. ва б. Ўзбек тили. –Тошкент, 1978. –Б. 44-45; Содиков А. ва б. Тилшуносликка кириш. –Тошкент, 1981. –Б. 108-110.

uch xil yo‘ldan borgani (asliyatdagi shaklda qo‘llangan iboralar, yarim kalka shaklidagi iboralar, to‘la kalka shaklidagi iboralar) qayd etilgan³.

Keyinchalik A.Hojiev bu tasnifni inkor etib, frazeologizmlarni guruhlash ma‘qul emasligini ta‘kidlaydi⁴.

Sh. Rahmatullayev frazeologik birliklardagi ko‘p ma‘nolilik, ma‘nodoshlik, variatsiya, antonimiya, shakldoshlik hodisalariga diqqat qaratib, muammoni o‘ttiz mingdan ortiq kartochkalar tahlili asosida ochib beradi⁵. Olim boshlab bergan bu semantik munosabatga asoslangan tasnif o‘zini oqlagan holda sinonim frazemalar monografik ish sifatida o‘rganilgan bo‘lsa⁶, frazemalarning polisemantik, omonimlik xususiyati tadqiq qilinishini kutayotgan muhim muammolardan biridir

Keyingi davr tadqiqotchilari tomonidan leksemalarga nisbatan qo‘llanuvchi maydon va semantik mikromaydon tushunchalarini frazeologizmlarga nisbatan tatbiq qilishi frazemalarga semantik jihatdan yangicha aspektda yondashish imkonini berdi. “Til (mazmuniy) mundarijasini maydon metodi bilan o‘rganish eng samarali va qulay metodlardan biri bo‘lib qoldi. Maydonlarni leksik-semantik va funksional-semantik maydonlarga ajratishda oppozitiv, komponent tahlil hamda matniy tahlil metodlari o‘ziga xos yordam beradi⁷.

NATIJALAR

Bizgacha ko‘rilgan ishlarga va XIV asrning II yarmiga oid yozma manbalarda qo‘llangan frazemalar tabiatidan kelib chiqib, manjud frazemalarni semantik jihatdan besh yirik ma‘noviy guruhga ajratib mumkin:

1. Nom bildiruvchi frazemalar
2. Harakat bildiruvchi frazemalar
3. Holat bildiruvchi frazemalar
4. Belgi-xususiyat bildiruvchi frazemalar
5. Shaxsning xulq-atvorini ifodalovchi frazemalar

Frazemalarning semantik statistikasi diagrammada quyidagicha aks etadi:

³ Умаров Э. Фразеологический словарь «Хазойин-ул-маоний» Алишера Навои. – Ташкент: Фан.1971. С.15-17.


⁴ Шоабдурахмонов Ш., Хожиев А. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. –Тошкент, 1980. –Б. 142.

⁵ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари (Фразеологик полисемия, синонимия, антонимия ва омонимлик). Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1966.

⁶ Вафоева М. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили. Филол. фан. номз...дисс. –Тошкент, 2009.

⁷ Искандарова Ш. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайdonи). Филол. фан. докт...дисс. – Тошкент, 1999. –Б. 61.

Frazemalarning semantik statistikasi:



- Harakat-holatni bildiruvchi frazemalar -343
- Shaxsning fe'l-atvorini bildiruvchi frazemalar - 13
- Belgi-xususiyat bildiruvchi frazemalar -25
- Nom bildiruvchi frazemalar -9

MUHOKAMA

Nomni bildiruvchi frazemalar semantikasi

Nom bildiruvchi frazemalar ot frazemalar⁸ sifatida o'rganilgan ishlar mavjud. "Ot frazemalar "predmet" turkumlik semasiga ega bo'lib, boshqa turkum frazemalariga nisbatan oz, tuzilishi jihatidan rang-barang. Bunday frazemalarda odatda predmet tushunchasi belgi tushunchasi bilan birgalikda anglatiladi, tayanch a'zosi asosan ot leksema bilan ifodalanadi"⁹. Tahlilga tortilgan frazeologizmlarda garchi oz bo'lsa-da, nom bildiruvchi birliklar bor va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Masalan, *köñül äyäläri* – "taqvodor kishilar", *köñül azari* – "xafagarchilik", *oğul qiz taşvishi* – "ro'zg'or", *falak äylänmäsi* – "davr", *toq köz* – "to'qlik", *miñ jänim bolsa*, *sengä tortiq* – "sovg'a", *içindä jän yoq* – "madorsiz", *elindä bär* – "ega", *başin-ayaq* – "borliq".

Sh.Rahmatullayev nom bildiruvchi frazemalarning grammatik qurilishiga ko'ra birikmaga teng va gap shaklga teng ko'rishishlarini farqlagan. XIV asrning II yarmiga oid manbalarda, asosan, qaratqichli birikmaga teng shaklda yaxlitlangan nom bildiruvchi frazeologizmlar ko'proq uchrasa (*oğul qiz taşvishi*, *köñül äyäläri*), sifatlovchi birikmaga teng (*olam qaranğu*), gap shaklga teng (*içindä jän yoq*) shaklidagi frazemalar ozchilikni tashkil qiladi. Nom bildiruvchi frazemalar semantik jihatdan ko'p hollarda mavhum tushunchalarni tasvirlab kelgan. Ammo shaxs semasini anglatuvchi frazemalar ham mavjud. Masalan, "Gulistoni bit-turkiy"da *köñül äyäläri* frazemasini "mehribon kishilar, rahmdil kishilar, taqvodor kishilar,"¹⁰

⁸ Пинхасов Я. Хозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўқитувчи, 1969. –Б. 53; Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: Universitet, 2006. –B. 402.

⁹ Rahmatullayev Sh. O'sha manba. –B. 402.

¹⁰ Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. Т. I-II. –Ташкент: Фан, 1966-1971. Т. I. 1966. –С.139.

ma'nosini ifodalab, to'rt o'rinda kelgan va barcha o'rinlarda zulm ko'rgan kishini himoyalash yoki og'ir ahvolda qolgan obrazga maslahat beruvchi obraz sifatida gavdalangan: *Bu so'zni ko'ngul eyalarindan bir kimersa eshitib aytti (GT, 197)*. Ko'ngul bilan bog'liq birikmalarning shaxslarga nisbatan qo'llanishi qadimgi turkiy tilda yozilgan asarlarda ham uchraydi. Jumladan, *köñüllüg kişi* birikmasi "Qadimgi turkiy lug'at"da (DTS, 2432) "es-hushli, ziyarak kishi" ma'nosini ifodalagan. Ayni ma'noda "Devon"da *köñüllüg er* birikmasi qo'llangan. *Köñül äyäläri* frazemasiga semantik jihatdan nisbatan yaqin birlik "Qisasi Rabg'uziy"da *köñüllü(19r 22)/köñüllü(6r 4)/köñüllig (6r 5)* shaklida uchraydi va ushbu leksemalar "yurakli, ko'ngilli" ma'nosida ishlatilgan¹¹. Demak, X – XI asrlarda *köñül* leksemasi uchun "aql" yetakchi sema bo'lsa, XIII – XIV asrlarda "mehr, rahmdillik" tushunchalari yetakchi sema darajasiga ko'tarilgan. Ushbu frazema ko'chma ma'no asosiga qurilgan so'z birikmasining ham leksik, ham semantik qayta shakllanishidan hosil bo'lgan. Shuningdek, "Gulistoni bit-turkiy"da olimlar "*bilik äyäläri*", qozi "*buyruq äyäläri*" kabi iboralar bilan berilgan: *Mulk bilik eyalarindan jamol topar dag'i din muttaqiylardan kamol tutar*. Bu uslub bilan frazeologizm hosil qilish tilimiz tabiatiga xos xususiyat ekanligini A.Qodiriy tilida ega komponentli frazeologizmning mavjudligida ham ko'rish mumkin. Qodiriy yengil tabiat ayollarni "noz egasi" evfemizmi bilan ifodalaydi¹².

oğul qiz taşvişi frazemasida "oila boqish, oila ta'minoti" ma'nolarini bildirgan va shaxs anglatuvchi so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash orqali faoliyat-jarayon otini anglatgan: *Malik buyurdikim, vajhi kifoyatin muayyan qildilar, hatto o'g'il, qiz tashvishi aning ustuna bo'lmag'ay (GT, 227)*. Frazemadagi semantik tayanch komponent sanalgan *oğul, qiz* leksemalari o'z qatlamga mansub bo'lib, qadimgi turkiy tilda *oğlan qiz* juft so'zi "o'g'il yoki qiz farzand" ma'nosini ifodalagan (DTS, 363). "Qutadg'u bilig"da "farzand" ma'nosi *oğul qiz* juft so'zi orqali berilgan. *oğul qiz esizlikkä bulğay tolum* (Farzandlar bu yaramas ishlar uchun kerak-yarog' topadilar. 5181)¹³. "Gulistoni bit-turkiy"da frazema tarkibida kelgan ushbu juft so'z metonimiya usulida ma'no ko'chirish orqali "oila" semasida qo'llanmoqda.

Baštīn-ayaq frazemasida "Muhabbatnoma"da ikki o'rinda uchraydi va har ikki o'rinda ham jamlikni anglatuvchi *qamuğ* leksemasi bilan birga qo'llanib, "butun borliq" ma'nolarini ifodalab kelmoqda.

¹¹ Абдужаббарова Ф. "Кутадғу билиг"даги шахс белги-хусусиятини англатувчи лексика. Филол. фан. номз...дисс. –Тошкент, 2011. –Б. 108.

¹² Кадилова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати. Филол. фан. номз...дисс. –Тошкент, 2011. 1-илова –Б. 6.

¹³ Абдужаббарова Ф. "Кутадғу билиг"даги шахс белги-хусусиятини англатувчи лексика. Филол. фан. номз...дисс. –Тошкент, 2011. –Б. 34.

*Latofat mulkida sultonsen, ey jon,
Qamug boshtin-oyoqqa jonsen, ey jon (M, 17).*

Ushbu frazema hozirgi o'zbek tilida semantik o'zgarishga uchragan. Izohli lug'atda *baštīn-ayaaq* birligi ravish sifatida qayd etilib, "boshidan to oxirigacha; tugal, batamom; batafsil" deb izohlangan. Frazeologik lug'atlarda esa "butunlay, to'la-to'kis, oxirigacha, hamma joyi"¹⁴ ma'nolarini ifodalashi qayd etilgan. Farqli ma'lumotlarga aniqlik kiritish maqsadida shuni aytish mumkinki, *baštīn-ayaaq* birligi frazema va XIV asr manbalarida ushbu birlik "*borliq*", "*olam*" ma'nolarini anglatgan. Uning hozirgi o'zbek tilidagi mavjud ma'nosi tilning ma'lum bosqichida *qamug'* so'zi bilan qo'llanishi natijasida shakllangan, ya'ni frazema semantikasida siljish yuz berib, frazemaning *borliq* semasi yo'qolgan va frazema o'zi bilan qo'llanuvchi *qamug'* - hamroh so'z ma'nosini olgan. *Qamug'* so'zi eski o'zbek tilida "butun, butunlay, hamma, to'la-to'kis"¹⁵ ma'nolarini anglatgan va bu frazemaning hozirgi ma'nosiga mosdir.

Ičindā jān yoq frazemasi izohli lug'atda *joni yo'q* shaklida qayd etilgan va ikki xil ma'nosi ko'rsatilgan: 1. O'lik, jonsiz; 2. Kuchi yo'q, kuchsiz, madorsiz¹⁶. "Muhabbatnoma"da ushbu frazema "madorsiz", "kuchsiz" ma'nolarida qo'llangan.

*Xorazmiyning ketib aqli boshidin,
Turur tik surati, yo'q jon ichinda (M., 15).*

Davr o'tishi bilan frazema tarkibida leksema tushishi yuz bergan bo'lsa-da, ushbu frazema xalq so'zlashuv tilida "*Ichida joni yo'q, Ichida joni yo'qmi? Ichida joni bormi?*" variantlarida ishlatiladi.

Umuman, Xorazmiyning "Muhabbatnoma" va Sayfi Saroyi asarlaridagi aksar frazemalarning shevalarimizda mavjudligi e'tiborga molikdir.

XULOSA

Nom bildiruvchi frazemalar tahlili shuni ko'rsatadiki, frazemalarning otga teng tushunchalarni ifodalashi tilning qadim bosqichlariga borib taqaladi. Frazemalar turli davrlarda turli ma'no ifodalashi yoki bir ma'noni saqlagan holda keyingi davrlarda qo'llanishi mumkin. Bu frazemaning tildagi faolligiga, leksemalar tarkibiga va frazema anglatgan tushunchaga bog'liq bo'ladi.

¹⁴ Бердиёров Х., Расулов Р., Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологиясидан материаллар. I, II қисм. –Самарқанд, 1979, 2-қисм. –Б. 13; Менглиев Б., Худойбердиева М., Бойматова О. Ўзбек тили ибораларининг ўқув изоҳли луғати. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. –Б. 9; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. –Тошкент, 1978., –Б. 45.

¹⁵ Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. Т. I-II. –Ташкент: Фан, 1971. –С. 593.

¹⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилд. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. II жилд. –Б. 104.

REFERENCES

1. Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари. Филол. фан. док...дисс. – Тошкент, 1999. –Б. 115.
2. Раҳматуллаев Ш. Фразеологик бирликларнинг асосий маъно турлари. – Тошкент: 1955;
3. Пинхасов Я. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўқитувчи, 1969. –Б. 48;
4. Умаров Э.А. Фразеологический словарь “Хазойин-ул-маоний” Алишера Навои. – Тошкент: Фан, 1971. –С.9-12;
5. Мирзаев М. ва б. Ўзбек тили. –Тошкент, 1978. –Б. 44-45;
6. Содиқов А. ва б. Тилшуносликка кириш. –Тошкент, 1981. –Б. 108-110.
7. Умаров Э. Фразеологический словарь «Хазойин-ул-маоний» Алишера Навои. – Ташкент: Фан.1971. С.15-17.
8. Шоабдурахмонов Ш., Ҳожиёв А. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. – Тошкент, 1980. –Б. 142.
9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари (Фразеологик полисемия, синонимия, антонимия ва омонимлик). Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1966.
10. Вафоева М.Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили. Филол. фан. номз...дисс. –Тошкент, 2009.
11. Искандарова Ш. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони). Филол. фан. докт...дисс. – Тошкент, 1999. –Б. 61.
12. Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. Т. I-II. –Ташкент: Фан, 1966-1971. Т. I. 1966.
13. Абдужаббарова Ф. “Қутадғу билиг”даги шахс белги-хусусиятини англатувчи лексика. Филол. фан. номз...дисс. –Тошкент, 2011.
14. Кадирова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати. Филол. фан. номз...дисс. –Тошкент, 2011. 1-илова –Б. 6.
15. Бердиёров Ҳ., Расулов Р., Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологиясидан материаллар. I, II қисм. –Самарқанд, 1979, 2-қисм.
16. Менглиев Б., Худойбердиева М., Бойматова О. Ўзбек тили ибораларининг ўқув изоҳли луғати. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2007.
17. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. –Тошкент, 1978.